

30-Mart, 2026-yil

ZAMONAVIY O‘ZBEK TILIDA INGLIZCHA O‘ZLASHMALARNING
LEKSIK-SEMANTIK VA STRUKTURAVIY TAHLILI

Saloxiddinova Sevara Abdiraxmonovna

*Oriental Universiteti Samarqand kampusi ingliz tili fani o‘qituvchisi,
[saloxiddinovasevara@gmail.com/](mailto:saloxiddinovasevara@gmail.com)*

Ergasheva Go‘zal Muhiddin qizi

*Oriental Universiteti Samarqand kampusi filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi @gmail.com/*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada globallashuv jarayonida ingliz tilidan o‘zbek tili leksikasiga kirib kelayotgan o‘zlashmalarning leksik-semantik va struktur xususiyatlari tadqiq etiladi. Maqolaning asosiy maqsadi — zamonaviy o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi anglisizmlarning neologizm sifatida shakllanish mexanizmlarini va ularning funksional-uslubiy doirasini aniqlashdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek tili iste‘molida faol qo‘llanilayotgan inglizcha o‘zlashmalar olingan bo‘lsa, ularning strukturaviy adaptatsiyasi va ma‘no ko‘chishi bosqichlari ishning predmeti hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, o‘zbek tilshunosligi, leksikologiya, neologizmlar, anglisizmlar, o‘zlashma so‘zlar, leksik-semantik tahlil, struktur adaptatsiya, terminologiya, lug‘at tarkibi.

Abstract: This scientific article explores the lexical-semantic and structural characteristics of borrowings entering the Uzbek lexicon from the English language during the process of globalization. The primary objective of the research is to identify the mechanisms of formation for anglicisms as neologisms within the modern Uzbek vocabulary and to determine their functional-stylistic scope. While the object of the study comprises English loanwords actively used in the Uzbek linguistic context, the subject of the work focuses on the stages of their structural adaptation and semantic shifts.

Keywords: Globalization, Uzbek linguistics, lexicology, neologisms, anglicisms, borrowed words, lexical-semantic analysis, structural adaptation, terminology, vocabulary.

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются лексико-семантические и структурные особенности заимствований, входящих в узбекский язык из английского в условиях глобализации. Основной целью исследования является выявление механизмов формирования англицизмов как неологизмов в современной узбекской лексике, а также определение их функционально-стилистической сферы употребления. Объектом исследования являются английские заимствования, активно используемые в узбекской языковой среде. Предмет работы связан с анализом этапов их структурной адаптации и семантических изменений.

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Mart, 2026-yil

Ключевые слова: глобализация, узбекское языкознание, лексикология, неологизмы, англицизмы, заимствованные слова, лексико-семантический анализ, структурная адаптация, терминология, словарный состав.

KIRISH

Milliy o‘zlikni anglash va xalqning ma’naviy merosini asrashda til eng asosiy poydevor hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganidek, ona tilimizni asrab-avaylash, uning nufuzini oshirish va boyitib borish doimiy vazifamizdir. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda bank-moliya tizimi kabi strategik sohalarda o‘zbek tilining qo‘llanish doirasini kengaytirish, yangi atama va tushunchalarni ilmiy asosda shakllantirish milliy taraqqiyotning garovidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ona tilimizning nufuzini oshirish va uni zamon talablari asosida rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada qabul qilingan huquqiy hujjatlar nafaqat tilning sof saqlanishiga, balki uning xalqaro terminologiya bilan boyishini ilmiy tartibga solishga xizmat qilmoqda.

Xususan, 2019-yil 21-oktabrdagi "O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5850-sonli Farmoni tilimiz rivojida yangi davrni boshlab berdi. Mazkur farmon bilan 21-oktabr sanasi "O‘zbek tili bayrami kuni" deb e‘lon qilindi hamda Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi. Ushbu departament oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri — ilm-fan, IT va iqtisodiyot sohalariga kirib kelayotgan yangi atamalarni tartibga solish hamda o‘zbek tilining sohaviy lug‘atlarini boyitishdan iboratdir.

Shuningdek, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6084-sonli Farmoni bilan "2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Ushbu konsepsiyada:

- Davlat tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va jahon axborot tarmog‘idagi o‘rnini mustahkamlash;
- Yangi atamalarni (neologizmlarni) ilmiy asosda standartlashtirish;
- O‘zbek tilining sohaviy atamalar lug‘atlarini doimiy ravishda yangilab borish kabi strategik vazifalar belgilandi.

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zlikni anglash va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylikdir”. Shunga ko‘ra, ingliz tilidan kirib kelayotgan neologizmlarni tahlil qilish va ularning o‘zbek tili lug‘at tarkibidan o‘rin olishini ushbu islohotlar va huquqiy hujjatlar asosida ilmiy o‘rganish bugungi kun filologiya fanining eng dolzarb vazifasidir.

Til jamiyat bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadigan jonli organizm bo‘lib, ijtimoiy hayotdagi barcha o‘zgarishlar, eng avvalo, uning leksik qatlamida o‘z aksini topadi.

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Mart, 2026-yil

Bugungi jadal taraqqiyot davrida texnologik inqilob va geosiyosiy integratsiya jarayonlari natijasida tillararo muloqot va so‘z o‘zlashish sur‘ati misli ko‘rilmagan darajada o‘ydi. Bu jarayon o‘z navbatida o‘zbek tili lug‘at tarkibining yangi qatlam — neologizmlar hisobiga boyishiga zamin yaratmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Etimologik jihatdan neologizm tushunchasi (yunoncha neos – "yangi", logos – "so‘z") jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, yangi paydo bo‘lgan ashyo yoki tushunchalarni ifodalovchi lisoniy birliklarni anglatadi. Neologizmlar tilda dastlab noodatiy unsurlar sifatida ko‘rinsada, iste‘mol darajasi oshishi bilan o‘zining "yangilik" xususiyatini yo‘qotib, tilning faol lug‘at qatlamiga integratsiyalashadi.

O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari tarixan ichki va tashqi omillarga bo‘linadi. XIX-XX asrlarda kechgan ijtimoiy-siyosiy evrilishlar so‘z o‘zlashish dinamikasini tezlashtirdi. Ushbu davrda ko‘plab yevropa tillariga xos birliklar rus tili vositachiligida kirib kelgan bo‘lsa, bugungi kunda bevosita o‘zlashish jarayoni ustuvorlik qilmoqda.

Hozirgi kunda inglizcha o‘zlashmalarning o‘zbek tiliga kirib kelishi quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashish: O‘zbek tilida aniq muqobili bo‘lmagan yoki texnik ehtiyoj tufayli qabul qilingan so‘zlar (masalan: chat, bifshteks, tender).

Sohaviy terminologik o‘zgarishlar: Iqtisodiyot, media va IT sohalaridagi reyting, marketing, brifing, imidj kabi birliklar nutqning ilmiyligini ta‘minlash va xalqaro muloqotga moslashish maqsadida faol qo‘llanilmoqda.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy metoddan foydalanilib, inglizcha neologizmlarning o‘zbek tili leksik-semantik tizimidagi o‘rni va ularning funksional uslublardagi adaptatsiyasi o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zamonaviy o‘zbek tili leksikasini kuzatar ekanmiz, kundalik hayot ehtiyojiga aylangan, biroq "O‘zbek tilining izohli lug‘ati" (O‘TIL) nashrlarida hali o‘z aksini topmagan ko‘plab neologizmlarga duch kelamiz. Masalan, minimarket, gipermarket, netbuk, sensor, flesh-xotira kabi so‘zlar jamiyatda faol qo‘llanilmoqda.

Tadqiqot jarayonida inglizcha o‘zlashmalarning o‘zbek tili muhitida semantik o‘zgarishlarga uchrashini bir necha guruhga ajratish mumkin:

1. Etimologik va zamonaviy ma‘no o‘rtasidagi tafovut. Ayrim so‘zlar o‘zlashgan tildagi tub ma‘nosidan uzoqlashib, o‘zbek tilida mutlaqo boshqa semantik mazmun kasb etadi:

Yumor (ingl. humour — fe‘l-atvor, kayfiyat; lot. humor — namlik) — o‘zbek tilida faqat badiiy yoki nutqiy tasvir vositasi, kulgili hazil ma‘nosida mustahkamlandi.

Kollej (ingl. college — birodar, o‘quv yurti) — G‘arbda umumiy o‘quv yurti bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligi va ta‘lim tizimida o‘rta maxsus kasb-hunar muassasasi sifatida terminologik qat‘iylik kasb etdi.

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Mart, 2026-yil

Kokteyl (ingl. cocktail — xo‘roz dumi) — etimologik "xo‘roz dumi" ma’nosidan uzoqlashib, turli ichimliklar aralashmasi (alkogolli yoki alkogolsiz) tushunchasiga o‘tdi.

2. Miqdoriy o‘shish va leksikografik tahlil. Inglizcha o‘zlashmalarning o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi ulushi dinamik tarzda o‘shib bormoqda. Agarda O‘TILning eski nashrlarida inglizcha so‘zlar soni 80 taga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, yangi nashrlarda bu ko‘rsatkich 500 dan ortdi. Sohaviy lug‘atlarni (IT, internet, moliya) hisobga olgan holda, bugungi kunda o‘zbek tilidagi anglisizmlar soni 1000 tadan oshganini kuzatish mumkin.

3. Sohaviy neologizmlarning funksional tahlili. Tadqiqot doirasida to‘plangan materiallar quyidagi sohaviy guruhlariga ajratildi:

Texnologik: Mikser (elektr asbob), Pleyer (audio moslama), Provayder (internet vositachisi).

Ijtimoiy-siyosiy: Miting (ommaviy yig‘ilish), Menejment (boshqaruv fani), Prodyuser (loyiha nazoratchisi).

Sport: Nokdaun (boks), Trening (mashg‘ulot).

4. Etimologik qiziqish va xalqona etimologiya. Ayrim neologizmlar o‘zining etimologik asosi bilan qiziqish uyg‘otadi. Masalan, Kovboy (cow-boy — sigir boquvchi yigit) va Xot-dog (hot-dog — issiq kuchuk). Ta’kidlash joizki, xot-dog iborasi 1884-yildan boshlab sosiska ma’nosida qo‘llanila boshlagan bo‘lib, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’noni emas, balki ma’lum bir ijtimoiy metaforani ifodalaydi.

Inglizcha o‘zlashmalarning o‘zbek tiliga kirib kelishida kuzatiladigan yana bir dolzarb muammo — bu variativlik, ya’ni bir so‘z imlosining ikki xil ko‘rinishda uchrashidir. Masalan: noutbuk/notbuk, yogurt/yo‘gurt, pleyer/pleyyer, bluming/blyuming, kanistr/kanistra. Bunday holatlar yangi o‘zlashmalarda hali "yaxshi o‘zlashtirilmaganlik" (assimilatsiya bo‘lmaganlik) alomati hisoblanadi. Tilshunoslikda imlo variantdorligini kamaytirish va ularni yagona akademik normaga keltirish nutq madaniyatini yuksaltirishning muhim shartidir.

Mustaqillik yillarida o‘zbek tili leksikasiga ingliz tilining ta’siri bevosita aloqalar natijasida tubdan o‘zgardi. Bugungi kunda inglizcha neologizmlar nafaqat yangi tushunchalarni nomlamoqda, balki polisemantik (ko‘p ma’noli) xususiyat kasb etib, nutqning ta’sirchanligi va lo‘ndaligini oshirishga xizmat qilmoqda. Sport, harbiy ish, kulinariya va moda kabi sohalardagi anglisizmlarni o‘z o‘rnida va me’yorida qo‘llash so‘zlovchi nutqining ham ilmiy, ham pragmatik sifatini ta’minlaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, neologizmlar jamiyat taraqqiyoti va zamon ehtiyoji mahsuli sifatida til tizimida doimiy o‘rin egallab bormoqda. O‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

❖ Leksik kengayish: O‘zbek tili lug‘at tarkibida inglizcha neologizmlarning miqdori eksponentsial tarzda ortmoqda va bu jarayon asosan axborot texnologiyalari hamda iqtisodiyot sohalari bilan bog‘liq.

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Mart, 2026-yil

❖ Ekvivalentlik muammosi: Ingliz tilidan kirib kelgan ko‘plab terminlarning o‘zbek tilida aniq muqobili (ekvivalent) mavjud emasligi sababli, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirilmogda va lisoniy ehtiyojni qoplamoqda.

❖ Leksikografik bo‘shliq: Kundalik iste‘molda faol bo‘lgan ayrim yangi o‘zlashmalar hali amaldagi izohli lug‘atlarga kiritilmagan bo‘lib, bu kelgusida lug‘atchilik (leksikografiya) sohasida yangi tahrirlarni talab etadi.

❖ Ortografik unifikatsiya: Imlo bo‘yicha variantdorlikka (ikki xil yozilishga) barham berish, neologizmlarning yagona standartini ishlab chiqish tilning imlo qoidalarini tartibga solishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – 87-b.
2. Hamrayeva Y. O‘zbek tilining o‘quv ideografik lug‘atini yaratish tamoyillari: Filol. fan. nomz. ... dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2010. – 6-b.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
4. Mahmudov N. O‘zbek tilida o‘zlashma so‘zlar: me‘yor va milliylik // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2010. – №6. – 8-bet.
5. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.
6. Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.